

# TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ

—  
JOURNAL  
2022

№3

### **Бош муҳаррир:**

Пардаев А.Ҳ. ЖДПИ, тарих факультети декани, т.ф.н. доцент.

### **Бош муҳаррир ўринбосари:**

Ақчаев Ф.Ш. ЖДПИ, тарих факультети, т.ф.б.ф.д. (PhD), доцент.

### **Масъул котиблар:**

Саидов Ж.О. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Хўжанова М. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

### **Таҳририят аъзолари:**

1. Сагдуллаев А.С. – тарих фанлари доктори, Академик,
2. Аҳмедшина Ф.А. – тарих фанлари доктори, профессор,
3. Шодмонова С.Б. – тарих фанлари доктори, профессор,
4. Очилова Б.М. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
5. Чориев С. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
6. Туленова Г. Ж. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
7. Пардаев М.Ҳ. – тарих фанлари доктори, доцент,
8. Ғойибов Б.С. – тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
9. Ярмагов Р. – педагогика фанлари доктори (DSc), доцент,
10. Саидқосимов А.И. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент,
11. Амануллаев А. – ф.ф.б. фан доктори (PhD), доцент,
12. Тошбоев Ф.Э. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
13. Миркомиллов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент,
14. Саидов М. – фалсафа фанлари номзоди, доцент,
15. Ғофуров Ж. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
16. Ҳошимхонов М.Х. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент
17. Валиев А.Х. – катта ўқитувчи,
18. Мажидов А.С. – катта ўқитувчи,
19. Каримова Н. – ўқитувчи,

**IBTIDOIY DIN SHAKLI – TOTEMIZGA OID ARXEOLOGIK  
YANGILIKLAR**

*Bobojonova Nargiza Islamovna*

Jizzax shahar JDPI akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'zbekiston kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi maskanlaridan biridir. Bu yerlar o'zining serhosilligi va issiq iqlimi tufayli insoniyatning eng qadimgi maskanlaridan biriga aylangan. Qulay geografik mintaqada joylashganligi sababli Sharq va G'arb mamlakatlarini bog'lab turgan. Buyuk ipak yo'li o'tgan ushbu maskan tarixi juda boy va qiziqarli hisoblanib, dunyo va o'zbek tarixchilarining ham diqqat markazida bo'lib, olamshumul tarixiy yangiliklari bilan tariximizni yana ham boyitib bormoqda.

**Kalit so'zlar:** Totemizm, Yerqo'rg'on, tumor, mifologiya, udum, arxeologiya, hunarmandchilik, ibtidoiy din.

**Аннотация:** Узбекистан – одно из древнейших мест в истории человеческой культуры. Благодаря своему плодородию и теплому климату эта земля стала одним из древнейших поселений в мире. Благодаря своему удобному географическому положению он соединил страны Востока и Запада. История этого места, через которое проходил Великий шелковый путь, очень богата и интересна, находится в центре внимания мировых и узбекских историков, обогащая нашу историю историческими новостями мирового уровня.

**Ключевые слова:** Тотемизм, Дождевой червь, Опухоль, Мифология, Традиция, Археология, Ремесла, Первобытная религия.

**Annotation:** Uzbekistan is one of the oldest places in the history of human culture. Due to its fertility and hot climate, it has become one of the oldest settlements in the world. Due to its convenient geographical location, it connected East and West countries. The history of this place, which passed the Great Silk Road, is very rich and interesting, and is in the focus of attention of world and Uzbek historians, enriching our history with world-class historical news.

**Keywords:** Totemism, Earthworm, Tumor, Mythology, Ritual, Archeology, Crafts, Primitive Religion.

O'rta osiyoda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida mil.avv. VII-VI asrlarda qadimiy shaharlar rivojlangan. Ushbu shaharlardan biri Qashqadaryo vodiysida joylashgan qadimiy Yerqo'rg'on shaxridir. Yerqo'rg'on shaxrida arxeologlar tomonidan olib borilgan qazish ishlari natijasida ibtidoiy din

## Тарих ва Жамият илмий журнали

shakllaridan bo'lmish Totemizmgga oid bir qancha yangiliklar va qiziqarli ma'lumotlar borligi aniqlandi. Albatta yurtimiz tarixiga oid bo'lgan har qanday yangilik bizni ya'ni tarixchilarni e'tiborda bo'lishimizni taqozo etadi. Ibtidoiy din shakllaridan animizm bo'lib, unda atrofimizdagi jon va ruhlarning borligiga ishonish qayd etilgan bo'lsa, fetishizm da esa narsa yoki biron-bir buyum muqaddaslashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, biror bir buyum yoki narsani balo-qazolardan asraydi deb, yonlarida olib yurishgan.

Totemiz ham ibtidoiy din shakllaridan bo'lib, odamlarning baliq, sher, yo'lbars, bo'ri, mushuk, it, qurbaqa, tog' echkisi, arslon, sigir, tuya kabi hayvonlar yoki o'simlik muqaddaslashtirilganligi haqidagi diniy qarashlar majmuasidir. Jahon mamlakatlari tarixidan ma'lumki, Misrda ushbu din shakli qadimgi davrda nihoyatda kuchli namoyon bo'lgan. Misrliklar xudolarni hayvon timsolida tasavvur etishgan. Masalan: buqa-Apis, Mushuk-Bastet bo'lsa, Hindistonda esa sigir va filni muqaddas ekanligini guvohi bo'lganmiz. O'rta asrlar tarixidan bizga ma'lumki, O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan Qoraxoniylar davlatida ham totemizm kuchli bo'lganligini ko'ramiz, masalan hukmdorlarni bug'roxon va arslonxon atamaları ishlatilgan. Qoraxoniylarda ikki o'rkachli tuya va arslonga sig'inish kuchli bo'lgan.

Yerqo'rg'on shaxri tarixini o'rganayotgan tarixchilarimiz bizga tengi yo'q tarixiy ma'lumotlarni taqdim etdilar ki, bu ma'lumotlar haqqoniy ekanligiga shubha yo'q, chunki yoshlik davrlarimizdan ham shunga yaqin ma'lumotlarni ko'p eshitganmiz. Qadimgi yerqo'rg'onliklar mifologoyasiga ko'ra, qo'y qut-baraka va omad timsoli bo'lgan. Shuning uchun bu jonivor ko'rinishidagi tumor va haykalchalarni uyda saqlash ezgulik alomati hisoblangan. Akademik K. Shoniyozov vohada istiqomat qiluvchi ayolning bola tug'ilishidagi udumlariga to'xtalib, homilador ayol tug'ruq paytida qiynalib qolsa, uy egalari doya momolarning afsonaviy homiysi Bibi Fotima bilan Bibi Zuxra haqiga qo'y so'yib, og'ir oyoq ayolning eyngil bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi yovuz kuchlarni haydashga harakat qilishganini, bu bilan tug'ruq jarayoni osonlashganligi qayd etgan.

Qo'yni urish va so'kish ham man etilgan. Ajdodlarimiz uchun qo'y muqaddas hisoblangan, shuning uchun bo'lsa kerak, o'tmishda qo'yning kuragi, kalla suyagi, qo'chqor shoxlari ins-jinlarni haydash imkoniyatiga ega deb tasavvur qilishgan. Darvozalar tepasiga qo'chqor shoxlari ilib qo'yilishi va kashtalarda qo'chqor shoxini tasviri tushurilishi buning yorqin isbotidir. Masalan: chamasi 12-13 yoshda edim ko'z yaraga o'xshash yiringli yara oyog'imning bir nech joyidan chiqib boshladi, shifokorlar birini davolasa, boshqa joyidan yangilari chiqaverdi, shunda ayam 10 nafar farzandi bor qo'shnimizga bu yaralar haqida gapirganda bu ayol udumlarimizdan kelib chiqib, ko'z qarti qilishimizni, shundan keyin men ko'rmaganday bo'lib ketishimni aytdi. Ko'z qarti - bu qo'yning kallasini sotib olib,

## Тарих ва Жамият илмий журнали

ko'zlaridan chiqqan suyuqlikni yaraga surkash ekan, ayam shunday qildilar va bu yaralar keyin umuman chiqmay ketdi. O'ylaymanki bu eskilik sarqiti emas, afsona va haqiqat deganlaridek, poklik ramzi ham hisoblanib, ajdodlarimiz ishonib kelgan haqiqatdir. Xalqimiz bir oliyjanob ishni qilishdan oldin, albatta qon chiqarib, keyin katta ishni boshlagan, albatta bu holat o'z ijobiy samarasini bergan.

Qadimgi Yerqo'rgondan topilgan arxeologik topilmalar orasida tuya haykalchalari ham mavjud, bu shunchaki xalq hunarmanchiligi emas balki ajdodlarimizni omad va galaba haqidagi ezgu qarashlarini mujassam etgan mifologik timsoldir. Bunga yorqin misol tariqasida 1404-yilni oladigan bo'lsak, Amir Temurning g'alabalariga bag'ishlab, Samarqandda o'tkazilgan bayram saylida ishtirok etgan hunarmandlar tuya va yo'lbars shaklida sopol buyumlar yasaganlar. Qadimgi o'zbek mifologiyasida ikki o'rkachli tuya obrazi kuch-kudrat, omad, baxt, hokimiyat, davlat timsoli sifatida tasavvur qilingan. Baqtriya davlati madaniyatiga oid muhr, tanga va boshqa arxeologik topilmalarda tuya surati tasvirlanganligi, bu topilmalar mil. avv. II ming yillik ikkinchi yarmiga taaluqli ekanligi aniqlandi. Varaxsha yodgorligidan ma'lum bo'lishicha, xoqonlarning taxti ikki o'rkachli tuya shakliga monand qilib yasalganligi haqida ma'lumotlar bor. III-asr oxiri - IV asr boshidan to arablar bosqinigacha Xorazmshoxlarning shoxona tojini tuya surati bezab turgan. VII-VIII asrlarda Xorazmda zarb qilingan tangalarda ham tuya surati tushurilganligi, buyuklik va ulug'vorlik ramzi ekanligi ma'lum bo'lgan.

Yerqo'rg'ondan shuningdek, qurbaqaga taaluqli bo'lgan e'tiqodiy qarashlar bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Milodiy I ming yillik II choragiga aloqador qurbaqa shaklidagi jajji tumor topilgan. Qurbaqa suv va yomg'ir timsoli hisoblangan. Ushbu tumor Sopollitepadan topilgan qurbaqa shaklidagi sopol buyumga o'xshash jihatlaridan ekanligi aniqlangan. Arxeolog olim professor R.Sulaymonov qurbaqa timsoli bronza davri dehqonchilik madaniyatiga taaluqli ekanligini aniqladi. Tuproqqal'adan V asrga oid qadimgi ibodatxona qoldiqlari o'rganilayotganda, qurbaqa shaklida ishlangan, kichik tumorni topishgan. Yerqo'rg'onliklar ham ushbu tumorlarni yil seryog'in kelsin, hosil mo'l-ko'l bo'lsin deb, taqib yurgan bo'lishsa ajab emas. Rus olimi Dyakonov tomonidan olib borilgan qazish ishlari natijasida, Kofarnixon daryosi sohilida mil.avv. VII-IV asrlarga oid To'pxona qabristonidan 250 ga yaqin qabr tekshirib o'rganilganda qurbaqa timsoli tushurilgan billur munchoq topilganligi qayd etilgan. Qadimshunos olim Petrining yozishicha, qurbaqa shaklidagi tumorlar Qadimgi Misr yodgorliklaridan ham topilgan. Misrliklar mifologiyasiga ko'ra qurbaqa hosildorlik ramzi hisoblangan. Bejiz xalqimiz orasida ham qurbaqa tasviri tushurilgan tumor va uzuk taqib yuruvchi ayollarni ko'p uchratganman, nimaga taqib yuribsiz degan savolga doim bir xil javob olganman, omad va qut-baraka, pul keltiradi, deyishadi, bundan ko'rinib turibdiki ajdodlar ishonch va e'tiqodi asrlar davomida davom etib kelayotibdi.

## Тарих ва Жамият илмий журнали

Yerqo'rg'onda shuningdek, olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida it boshi tasvirlangan kichik qolip topilgan. Mutaxasislarning fikricha qolip V-\_VI asrlarga mansub bo'lib, it boshi tasvirlangan tumorchalar tayyorlashda ishlatilgan. Mifologiyada it yovuz kuchlardan asrovchi jonzot sifatida tilga olinadi. Qadimgi O'rta Osiyoda itga topinish mavjudligini tasdiqlaydigan muhim dalillardan yana biri jonivorlarni dafn qilinganligidir. Bunday qabrlar Baqtriya, Xorazm hududlaridan topilgan. Bolaliktepa ibodatxonasi supasidan ham to'qqizta it bosh chanog'i topilgan. It jasadini ko'mish uni muqaddas hayvon sifatida qaralganligini ko'rsatsa, it bosh chanog'ining pastki qismini idishlarda saqlab ko'mish esa bu jonivor bilan bog'liq qandaydir marosimlar o'tganligini ko'rsatadi. It kishiga sodiq do'st deyishadi, shuning uchun bolalarga govmijja chiqqanda uch kun non silab, keyin itga berishadi. Go'dakni beshikka belayotganda ham "egasi keldi, babasi qochsin, degan iborani ko'p ishlatishadi, shaxsan bolalarimni belaganimda ham shu iborani ishlatar edim. Ma'lumki, bolani beshikdan chiqarib olgandan keyin uning o'rniga ko'zga ko'rinmaydigan kuchuk kelib yotarmish, agar yuqorida aytilgan ibora ishlatilmasa kuchuk bola zamiriga singib uni kasal qilar ekan." He kuchuging chiqqur" degan ibora ham shu ibora bilan egizdir.

Ajdodlarimiz nazarida, it yovuz kuchlarni haydash xususiyatiga ega bo'lib, shu boisdan yangi tug'ulgan chaqaloqqa kiygiziladigan birinchi libos "it ko'ylak" deb ataladi, buning uchun chaqaloqning buvasi yoki uzoq umr ko'rgan yaqinlarining ko'ylaklari olinib, yirtib olinib, ko'ylak tikiladi, ko'ylak tikishda qaychi ishlatilmaydi, agar qaychi ishlatilsa bolaning umri qirqilishi mumkin ekan. Bu kabi ma'lumotlar nafaqat O'zbekiston hududida balki boshqa xalqlarda uchraganligini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Osetiya va tog'li Dog'iston hududlarida istiqomat qiluvchi xalqlarda itning suyagi va junidan tumor yasashgan, ular hisoblari bo'yicha agar biror bir jarohat yoki suyak singanda shu jundan tekizilsa, jarohat tezda bitgan. Haqiqatdan ham itning bosh suyagini uyning tomlari va devorlariga qo'yishgan. O'rta Osiyoda zardushtiylik dinini o'rganar ekanmiz, unda ham Axuramazdaga yovuzlik bilan kurashishda it tilga olinganligini guvohi bo'lamiz.

Qoraqalpoq xalqlarida yosh bolaga ko'z tegmasligi uchun betiga xamirdan surkalib, itga yallattirilgan ekan. Qirg'izlarda esa kasal bolaning qulog'i it qulogiga yaqinlashtirib tekkizilsa, kasallik yo'q bo'lib ketishi ta'kidlangan. Shunday bir udum ham bo'lganki, ayol bepusht bo'lsa, yangi tug'ulgan kuchuk bolalari ustidan sakratilgan, agar kuchukchadan biri o'lsa, ayol farzandli bo'lgan. O'zimizda yosh bola sal bezovtalansa, "ko'z tegdi, kinna kirdi" degan iboralarni ishlatamiz va non silatib, itga beriladi va farzand har qanday kinnadan, ko'z tegishidan xalos bo'ladi. Albatta hozirda bu bir bo'rttirib ko'rsatishday tuyilishi mumkin, lekin bunday holatlar asrlar o'sha saqlanib, davom etib kelayotganligini guvohi bo'ldik.

## **Тарих ва Жамият илмий журнали**

Darhaqiqat it insonning vafodor do'sti bo'lish bilan birga uyini qo'riqlovchi va yovuz kuchlardan saqlovchi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Totemizm singari diniy qarashlarning mavjudligi va bundan keyin saqlanib qolishiga hech xam shubha yo'q albatta.

### **Adabiyotlar:**

1. A.Kabirov. Jahon Tarixi. 2001 yil
2. A.Sagdullayev. Qadimgi dunyo tarixi. 2009 yil.
3. Fan va turmush 2006 yil.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2005 yil
5. Saidov, J. (2021). O'zbek xalqi etnogeniz tarixining ayrim masalalariga ilmiy yondashuv.